

**SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA EMPATIYANING ROLI VA UNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Ahmatova Anisa Rasul qizi**

Qarshi davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya yo'nalishi 2- kurs talabasi.

Murojaat uchun Tel: +998505878003 Gmail: [anisaaxmatovah@gmail.com](mailto:anisaaxmatovah@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21936951>

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada shaxslararo munosabatlarda empatiyaning roli hamda uning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil etiladi.

Shaxslararo munosabatlar insonning ijtimoiy moslashuvi, hissiy farovonligi va hayotdan qoniqish darajasini belgilovchi muhim omil sifatida ko'rib chiqilib, ushbu munosabatlarda empatiyaning o'rni alohida yoritilgan. Empatiya insonning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o'zida mujassam etuvchi murakkab psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi hamda uning shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, maqolada talabalar o'rtasidagi empatiya darajasi va guruhdagi psixologik iqlimning o'quv motivatsiyasiga ta'siri, shuningdek, kitob o'qishning empatiya rivojlanishidagi o'rni bo'yicha olib borilgan zamonaviy empirik tadqiqotlar tahlili keltirilgan hamda ularning qiyosiy natijalari umumlashtirilgan. Shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi individual psixologik xususiyatlar, jumladan, shaxsning idrok etish, baholash, stereotiplar va ijtimoiy ustanovkalari tizimi ham ilmiy asosda yoritilib, ularning o'zaro munosabatlar shakllanishidagi o'rni asoslab berilgan.

Shaxslararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanish mexanizmlari, shuningdek, ularni samarali tashkil etish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik omillar tahlil qilingan.

Empatiyaning shaxslararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, ijtimoiy moslashuvni ta'minlash hamda samarali muloqotni shakllantirishdagi muhim omil ekanligini keltirilgan.

Mazkur tadqiqot natijalari psixologiya, pedagogika va amaliy faoliyatda empatiyaning rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Empatiya, shaxslararo munosabatlar, psixologik xususiyatlar, muloqot, ijtimoiy moslashuv, kognitiv komponent, emotsional komponent.

### **Kirish**

Bugungi kunda shaxslararo munosabatlar va ularning psixologik asoslarini o'rganish psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat ijtimoiy aloqalarning o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi, bu esa insondan moslashuvchanlik va samarali muloqot ko'nikmalarini talab qiladi. Shu jihatdan shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi individual psixologik xususiyatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Shaxslararo munosabatlar birgalikdagi faoliyat va muloqot jarayonida shakllanadigan o'zaro ta'sir tizimi bo'lib, insonning jamiyatdagi o'rni va muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning muloqotga kirisha olish qobiliyatiga bog'liqdir [2]. Ushbu munosabatlarning samaradorligi esa temperament, xarakter va boshqa individual psixologik xususiyatlar bilan belgilanadi [3]. Bunday jarayonlarda empatiya muhim o'rin tutadi. Empatiya insonning boshqalarni tushunish, ularning hissiy holatini anglash qobiliyati bo'lib, shaxslararo munosabatlarda o'zaro ishonch va hamdardlikni shakllantiradi.

Mazkur tushuncha dastlab estetika sohasida yuzaga kelib, keyinchalik psixologiyaning muhim kategoriyalaridan biriga aylangan. Empatiya atamasi ingliz tiliga Edward B. Titchener tomonidan kiritilgan bo'lib, hozirgi kunda u kognitiv va emotsional jarayonlarni o'zida mujassam etuvchi murakkab psixologik hodisa sifatida talqin etiladi [4] Maqsad shaxslararo munosabatlarda empatiyaning roli va uning psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Empatiya muammosi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Achilova Munira Mansurovnaning – “Shaxslararo munosabatlarda empatiya hissi ahamiyatining adabiyotlarda o'rganilgan holati “ nomli maqolasida quyidagicha so'z boradi. Xususan, bo'lajak pedagoglarda empatiyani shakllantirish, ularni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash hamda insonparvarlik va altruistik sifatlarini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaraladi. Shu bilan birga, empatiya tushunchasining turlicha talqin qilinishi va uni shakllantirish mexanizmlarining yetarlicha aniqlanmaganligi mazkur sohada ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, empatiya tushunchasiga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, u ko'pincha shaxsning boshqa inson hissiy holatini anglash va unga javob berish qobiliyati sifatida izohlanadi. Mazkur tushuncha ilk bor Theodor Lipps tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, keyinchalik Edward B. Titchener tomonidan psixologiya faniga tatbiq etilgan Zamonaviy talqinlarda esa empatiya kognitiv va affektiv komponentlarning birligi sifatida qaraladi, bu esa uning murakkab psixologik tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi.

Empatiya muammosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, L.S. Vigotskiy empatiyani affekt va intellekt birligi sifatida talqin qilib, inson tajribasining dinamik tuzilmasini asoslab bergan. A.V. Zaporozes va boshqa tadqiqotchilar esa empatiyani boshqa inson holatiga hissiy munosabat sifatida izohlab, uning ijtimoiy munosabatlardagi rolini ochib berganlar [4].

Shuningdek, T.P. Gavrilova empatiyani boshqa inson tajribasiga hissiy javob berish qobiliyati sifatida tavsiflaydi, J. Merfi esa uni boshqalarning kechinmalariga hamdardlik bildirish va yordam ko'rsatishga intilish sifatida izohlaydi [6]. Gumanistik psixologiya vakillari, xususan A. Maslou va K. Rodgers empatiyani shaxs rivojlanishining muhim sharti sifatida baholagan bo'lsalar, zamonaviy tadqiqotlarda u ijtimoiy moslashuv, muloqot samaradorligi va motivatsiya bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda. Xususan, M. Xoffman empatiya rivojlanishining bosqichlarini ajratib ko'rsatib, uning ontogenezdagi shakllanish jarayonini asoslab bergan.

Shuningdek, T.D. Karyagin empatiyani tushuntirishda gnoseologik, axloqiy va integrativ yondashuvlarni ajratib ko'rsatadi hamda empatiyani boshqa insonning ichki holatini tushunish va unga mos hissiy javob berish jarayoni sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuvlar empatiyaning nafaqat bilish, balki hissiy va axloqiy jihatlarini ham o'zida mujassam etishini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotda empatiya va shaxslararo munosabatlar muammosini o'rganishda nazariy tahlil, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy o'rganish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali empatiyaning psixologik xususiyatlari, uning shaxslararo munosabatlardagi o'rni va ta'sir mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Pirjonov Sarvarbek Davlatovichning – “ Empatiya tushunchasi evolyutsiyasi va uning tarbiya jarayonidagi ahamiyati “ nomli maqolasida esa quyidagicha so'z boradi. Empatiya atamasi psixologiyaga nemischa Einfühlung tushunchasidan kirib kelgan bo'lib, uni Edward B. Titchener boshqa insonning hissiy holatini ichki tarzda his qilish sifatida talqin qilgan.

Keyinchalik bu tushuncha shaxslararo munosabatlarni o'rganishda muhim psixologik kategoriya sifatida rivojlangan. M.L.Hoffman empatiyani boshqa inson holatiga hissiy javob berish jarayoni sifatida izohlaydi va uni axloqiy xulq hamda ijtimoiy moslashuvning asosiy omili deb hisoblaydi. D.Batson esa empatiyani altruistik xulqni yuzaga keltiruvchi emotsional motiv sifatida ko'rib, uning yordam berish xulqini kuchaytirishini ta'kidlaydi. C.Gilligan empatiyani axloqiy munosabatlar va g'amxo'rlik asosidagi qarorlar tizimining muhim elementi sifatida talqin qiladi [7]. Shuningdek, empatiya ko'p o'lchovli tuzilma bo'lib, u kognitiv va emotsional komponentlarni o'z ichiga oladi (IRI modeli). Umuman olganda, empatiya shaxslararo munosabatlarda tushunish, hamdardlik va ijtimoiy moslashuvni ta'minlovchi muhim psixologik omil hisoblanadi.

### **Tahlil va natijalar**

Shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatdan tahlil qilinishi shuni ko'rsatadiki, u murakkab tizim bo'lib, uning samaradorligi bevosita empatiya darajasiga bog'liqdir. Empatiya insonlarning bir-birini tushunishi, hissiy holatini anglash va unga mos javob berish imkonini beruvchi asosiy psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotchi V.V. Boyko empatiyani boshqa insonning ichki psixologik makoniga kirish imkonini beruvchi murakkab kognitiv-emotsional va intuitiv jarayon sifatida izohlaydi. Uning fikricha, empatiya shaxslararo tushunish va hamdardlikni ta'minlovchi muhim mexanizmdir [1.6b]. Shuningdek, Achilova Munira Mansurovna va Pirjonov Sarvarbek Davlatovich tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, empatiya shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi, hamdardlik va altruistik xulqni rivojlantiradi hamda muloqot samaradorligini oshiradi. Ushbu tadqiqotlarda empatiyaning shakllanishi pedagogik jarayon va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlanadi. Shaxslararo munosabatlarning kognitiv komponenti idrok, xotira va tafakkur orqali boshqa shaxsni anglashni ta'minlaydi va empatiyaning kognitiv asosini tashkil etadi. Hissiy komponent esa boshqalarning hissiyotlarini ichki darajada his qilish va ularga emotsional javob berishda namoyon bo'ladi. Tahlil natijalariga ko'ra, empatiya shaxslararo munosabatlarda ishonch, hamdardlik va ijtimoiy uyg'unlikni shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Empatiya yuqori bo'lgan shaxslarda muloqot samarali kechadi, nizolar kamayadi va ijtimoiy moslashuv darajasi ortadi. Shuningdek, empatiya verbal va nonverbal vositalar (mimika, ohang, ko'z qarashi) orqali ham ifodalanib, bu shaxslararo tushunishni yanada mustahkamlaydi. tahlil natijalari empatiyaning shaxslararo munosabatlarda markaziy psixologik omil ekanini tasdiqlaydi va u kognitiv hamda emotsional jarayonlarni birlashtiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

### **Muhokama**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxslararo munosabatlarda empatiya markaziy o'rin egallab, uning samaradorligi ko'plab individual psixologik xususiyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Empatiya insonlar o'rtasida o'zaro tushunish, hissiy uyg'unlik va ijtimoiy moslashuvni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada, shaxslararo munosabatlar sifatiga empatiya bilan birga temperament va shaxsiy xususiyatlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar insonlarning o'zaro tushunishi, hissiy yaqinligi va munosabatlar barqarorligini belgilaydi [1.5b]. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili, turli olimlar V.V. Boyko, M.L. Hoffman, D. Batson, C. Gilligan empatiyani nafaqat hissiy jarayon, balki kognitiv va axloqiy komponentlarni ham o'z ichiga oluvchi murakkab psixologik hodisa sifatida talqin qilganlar.

Bu esa empatiyaning shaxslararo munosabatlarda ko'p funksiyali ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, empatiya darajasi yuqori bo'lgan shaxslarda ijtimoiy aloqalar barqarorroq bo'lib, nizolar kamroq yuzaga kelishi va muloqot samaradorligi yuqori bo'lishi aniqlandi. Bu esa empatiyaning amaliy jihatdan ijtimoiy moslashuvni kuchaytiruvchi omil ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, muhokama natijalari empatiyaning shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi psixologik omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

#### **Xulosa**

Mazkur ilmiy maqolada shaxslararo munosabatlarda empatiyaning roli va uning psixologik xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, empatiya turli olimlar tomonidan kognitiv, emotsional va axloqiy komponentlarni o'zida mujassam etuvchi murakkab psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Xususan, M.L. Hoffman, D. Batson va C. Gilligan kabi tadqiqotchilar empatiyaning ijtimoiy xulq, altruizm va axloqiy qaror qabul qilish jarayonlaridagi muhim o'rnini asoslab berganlar. Tahlil va natijalar qismida empatiya shaxslararo munosabatlarning samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanligi aniqlandi. U insonlar o'rtasida o'zaro tushunish, hissiy yaqinlik va ijtimoiy moslashuvni ta'minlaydi.

Shuningdek, temperament va shaxsiy psixologik xususiyatlar ham empatiya darajasi bilan birgalikda munosabatlar sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etildi. Muhokama natijalari esa empatiya nafaqat hissiy jarayon, balki kognitiv idrok va ijtimoiy xulqni boshqaruvchi muhim psixologik mexanizm ekanligini tasdiqladi. Empatiya yuqori bo'lgan shaxslarda muloqot samarali kechishi, nizolar kamroq yuzaga kelishi va ijtimoiy munosabatlar barqaror bo'lishi aniqlandi.

Empatiya shaxslararo munosabatlarni uyg'unlashtiruvchi, ijtimoiy moslashuvni kuchaytiruvchi va samarali muloqotni ta'minlovchi asosiy psixologik omil hisoblanadi. Shu sababli, empatiyaning rivojlantirish psixologiya va pedagogika sohalarida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati**

1. Сизикова М.В. Эмпатия как личностная черта и профессиональное качество психологов-консультантов с различным стажем практической деятельности. Дисс. канд. психол. наук. – М., 2018. – 165 с.
2. Барон, Р. А., & Бирн, Д. (2004). Социальная психология (11-е изд.). Бостон, Массачусетс: Pearson/Allyn & Bacon.
3. Выготский, Л. С. Педагогическая психология. – М.: АСТ, 2009 – 672с.
4. Гаврилова, Т. П. Психология межличностного познания. – М., 1981 – С. 122-139.
5. Запорожец, А. В. Психология действия. Избранные психологические труды. – М.: МПСИ, 2010. – 352с.
6. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – Москва: Педагогика, 2018.

#### **Ilovalar**

7. [https://cyberleninka.ru/viewer\\_images/20189717/f/13.png](https://cyberleninka.ru/viewer_images/20189717/f/13.png)
8. <https://share.google/Im0dFNWFMVIAmZWxz>
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalar-o-zaro-empatiyasi-va-guruhdagi-psixologik-iqlimning-o-quv-motiviga-ta-siri/viewer>